

TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2024-YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- noyabr oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida shahar korxonalarini tomonidan 159,6 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,2 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 132,8 trln.so'mni tashkil etdi.





B – Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,6% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 18,0% ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 19,2 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 9,5 % ga o'sish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,2 trln so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 12,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-noyabr oyida, % da)




Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



**Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar - noyabr	2024-yil yanvar - noyabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	607,6	564,0	-43,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	29 825,2	29 069,9	-755,3
Gaz kondensati, ming t.	595,6	636,8	41,2
Chaqiq tosh ming t.	364 890,2	277 747,0	-87 143,2

Ishlab chiqaradigan sanoat



2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 132,8 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 104,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(2024- yil yanvar-noyabr oyi% da)**




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,4 % ni (2023-yilning yanvar-noyabr –oyida – (4,6%), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,4 % (23,5%), o'rta-quyi texnologiyali – 39,7 % (32,1%) va quiyi texnologiyalisi – 44,4 % (39,8%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,8 % (2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 25,8 % (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,8 % (2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 130,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,0 % (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,8 % (2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7 468,1 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (48,6 % ga oshgan), 33 364,7 tonna paxatadan yigirilgan ip (5,3 % ga oshgan), 1 223,8 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (33,6 martaga oshgan)






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- noyabr	2024-yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.	128,8	75,5	-53,3
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	31,7	33,4	1,7
Margarin va yormalar tonna.	3180,4	0	-3180,4
Pivo – mln. litr	115,9	94,0	-21,9
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	624,6	369,9	-254,7
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	2002,1	3451,5	1449,4
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna	15568,0	15634,2	66,2

Metallurgiya sanoati (2024- yil yanvar- noyabr oyida)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oyida metallurgiya sanoati ulushi 14,6% ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 30,8% ga ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,8% ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 98,3 va ishlab chiqarish hajmi 19 602,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar- noyabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 13,6% ga oshgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8 477,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- noyabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi ulushi 13,1% ni, uning fizik hajm indeksi esa 4,1 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-noyabr oyи yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,6% ni va ishlab chiqarish hajmi 18 593,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oyida)



FHI % da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,3% ni, uning fizik hajm indeksi esa 5,6% ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oyи yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,2% ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 89,3% ni va ishlab chiqarish hajmi 13 519,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,2% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-noyabr oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9% ni tashkil etib, fizik hajm indeksi 104,8% ga tashkil qilib, ishlab chiqarish hajmi 6 551,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oyida)



FHI
% da



2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9% ni, fizik hajm indeksi esa 99,6% ni tashkil etgan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 101,4% ni, ishlab chiqarish hajmi esa 2 477,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-noyabr oyida)

2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7% ni, fizik hajm indeksi 2,5% ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 4 945,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI
% da**



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish (yanvar-noyabr oyida)




2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 46,8% ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3% ni, fizik hajm indeksi 2,6 martaga ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi esa 424,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-noyabr oyida)



2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 7,7% ga oshgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1% ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 108,9% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 5 428,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-noyabr oyida)

2023-yilning yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,4% ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0% ni, fizik hajm indeksi 117,1% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6 686,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-noyabr oyida

trln.
so'm



FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,2 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9% ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-noyabr oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,5% ga oshgani kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-noyabr oyida, % da)

2023- y.

2,8

yanvar-noyabr

2024- y.


3,9

yanvar-noyabr

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 632,7	3 371,0	-261,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	9 164,8	7 687,2	-1 477,6
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	878,5	1 104,9	226,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (yanvar-noyabr oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8% ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-noyabr oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mIrd.so'm	169,1	351,9	182,8
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	254,9	237,5	-17,4
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mIrd. so'm	298,6	562,1	263,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 75,6% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 88,2 foizga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida 1 409 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16